

Vazirlar Mahkamasining  
2024-yil \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ -son qaroriga  
1-ILOVA

## **Mebel mahsulotlarining xavfsizligi to‘g‘risida TEXNIK REGLAMENT**

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

#### **1-§. Maqsadi va qo‘llash doirasi**

1. Mebel mahsulotlarining xavfsizligi to‘g‘risidagi texnik reglament (keyingi o‘rinlarda — Texnik reglament) O‘zbekiston Respublikasining “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Texnik reglament fuqarolarning hayotini va salomatligini, atrof-muhitni, hayvonot va o‘simliklar dunyosini muhofaza qilishni ta’minlash, shuningdek, xaridorlarni (iste’molchilarni) chalg‘itadigan harakatlarning oldini olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi hududida mebel mahsulotlari va ulardan foydalanish (ekspluatatsiya) jarayonlarida qo‘llanilishi va bajarilishi majburiy bo‘lgan yagona talablarni belgilaydi.

3. Agar boshqa texnik reglamentlarda mebel mahsulotlarining alohida turlariga nisbatan talablar belgilangan bo‘lsa, unda mebel mahsulotlarining mazkur turlari, amal qilishi ularga taalluqli bo‘lgan barcha texnik reglamentlarning talablariga muvofiq bo‘lishi kerak.

4. Mazkur Texnik reglament O‘zbekiston Respublikasi hududida muomalaga chiqariladigan – mahsulot, to‘plamlar, maishiy va jamoat joylari uchun mebel garnituralari, shuningdek, individual buyurtmalar bo‘yicha tayyorlangan mebel mahsulotlariga taalluqlidir.

5. Mazkur Texnik reglament talablari Texnik reglamentga 1-ilovada keltirilgan mebel mahsulotlariga nisbatan qo‘llaniladi.

#### **6. Texnik reglament:**

tibbiyot mebellari, shu jumladan, maxsus turdagи operatsiya stollari, tibbiy ko‘rik uchun stollar, mexanik moslamali statsionar yotoqlar, stomatologik stullar va boshqa jarrohlik, stomatologik, veterinariya mebellari;

havo, yer osti va yer usti transportida foydalanish uchun mo‘ljallangan mebellar;

noyob (antikvar) mebellar;

avval foydalanilgan va ta’mirlangan mebellar;

ko‘rgazmalarda namoyish etiladigan va reklama uchun mo‘ljallangan mebellar namunalariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

## **2-§. Atamalar va ta’riflar**

7. Mazkur Texnik reglamentda quyidagi atama va ta’riflar qo‘llaniladi:

**mebel mahsuloti to‘pi** – umumiy funksional maqsadga ega alohida mebel mahsulotlari, shuningdek mebel to‘plamlari yoki garniturlari;

**bolalar uchun mebel** – o‘lchamlari, shakli va konstruksiyasi, rivojlanayotgan inson organizmning yoshga oid xususiyatlari va bo‘y tavsiflariga mos keladigan, bolalar uchun mo‘ljallangan mebel;

**barqarorlik** – mebel mahsulotining, uni boshlang‘ich holatidan chiqarib yuborish, ag‘darishga harakat qiladigan kuchlarga qarshi turish qobiliyati;

**elektr xavfsizligi** – konstruksiyasi elektr sarflaydigan qurilmalar mavjud bo‘lishini ko‘zda tutadigan, mebel mahsulotining maishiy elektr qurilmalarni montaj qilish va qo‘llashga doir barcha me’yor va qoidalarga muvofiqligi;

**funksional o‘lchamlar** – vazifasi va ulardan foydalanish sharoitlari bilan shartlangan, mebel mahsulotlari va ularning elementlari o‘lchamlari. Funksional o‘lchamlar saqlash obyektlarining antropometriyasi, ergonomikasi, hajmlari ma‘lumotlariga asoslanadi hamda mebel mahsulotidan foydalanishning qulayligi va xavfsizligini ta’minlaydi;

**himoyaviy qoplama** – yuzasini namlik va boshqa aggressiv moddalar ta’siridan himoyalash maqsadida, shuningdek yashash xonalarining havosiga mebel mahsulotining materialidan zararli uchuvchan moddalar ajralib chiqishini oldini olish uchun mebel qismlariga tushirilgan qoplama;

**himoyaviy-dekorativ qoplama** – bir vaqtning o‘zida himoyaviy va dekorativ funksiyalarini bajaruvchi, mebel mahsulotining yuzasidagi qoplama;

**jamoat xonalari uchun mebel** – faoliyati va funksional jarayonlarining o‘ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda, korxona va muassasalarni jihozlash (mebel bilan ta’minalash) uchun mebel;

**kimyoviy xavfsizlik** – xonalar havosida zararli kimyoviy moddalar darajasini oshib ketishi sababli, iste’molchining hayoti va salomatligiga zarar yetkazish bilan bog‘liq bo‘lgan xavf mavjud bo‘lmaydigan mebel mahsulotining holati;

**maishiy mebel** – shahar, shahar tashqarisi yoki qishloq turar joylaridagi, shu jumladan ochiq havodagi har xil xonalarni jihozlash (mebel bilan ta’minalash) uchun mebel;

**mahsulotni muomalaga chiqarish** – ishlab chiqaruvchi, sotuvchi yoki xorijiy ishlab chiqaruvchining funksiyasini bajaruvchi shaxs omborxonasidan jo‘natiladigan

yoki omborxonaga joylamasdan ortib jo‘natiladigan yoki realizatsiya qilish uchun eksport qilinadigan mahsulotlarni bozorda joylashtirilishi;

**mahsulotning turiga oid namunalari** – tarkibida bir xil qismlar, uzellar va materiallar bo‘lgan, muhim talablarni bajarish uchun ahamiyatli qiymatga ega bo‘lgan hamda o‘sha bir xil belgilangan talablarga javob beradigan, bir xil konstruktiv bajarilishdagi mahsulot namunalari;

**tamg‘alash** – ishlab chiqaruvchi tomonidan bevosita muayyan mebel mahsuloti, o‘ram, etiketkaga (yorliqlar) tushiriladigan axborotlar;

**mebel mahsuloti (mebel)** – yashash va jamoat xonalari, shuningdek, inson mavjud bo‘lgan boshqa zonalarni jihozlash uchun ko‘chmas yoki ko‘chma mahsulotlar yig‘indisi;

**mebel garnituri** – bir xil badiiy-uslubiy va konstruktiv belgilarga ega bo‘lgan, xonaning ma’lum funksional zonasini jihozlash (mebel bilan ta’minlash) uchun mo‘ljallangan mebel mahsulotlari guruhi;

**mebel buyumi** – mustaqil qo‘llash uchun mo‘ljallangan mebel mahsuloti birligi;

**mebel to‘plami** – yagona me’moriy-badiiy (uslubiy) to‘xtamdan foydalanib bajarilgan hamda o‘lchamlari, konstruksiyasi, qoplamasasi va pardozi bo‘yicha o‘zaro muvofiqlashgan, turli funksional maqsadga ega mebel mahsulotlari guruhi;

**mexanik xavfsizlik** – foydalanuvchining salomatligiga zarar yetkazish xavfi yoki hayotiga tahdid kamaytirilishini ta’minlaydigan, mebel mahsulotining miqdoriy mexanik ko‘rsatkichlari, geometrik xususiyatlari va tavsiflari kompleksi;

**mustahkamlik** – materiallar, konstruksiyalarning buzilmasdan va qaytarilmas deformatsiyalarga uchramasdan, tashqi yuklanishlarga qarshilik ko‘rsatish xususiyati;

**qattiqlik** – konstruksiyaning tashqi yuklanish ta’siri ostida qaytarilmas deformatsiyalar hosil bo‘lishiga qarshilik ko‘rsatish xususiyati;

**qoplama** – gruntlar, laklar, bo‘yoqlar, emallar, polimerlar, taxta shpon, qog‘oz-qatlamlili plastik, plyonkalar, matolar, metallar, mineral asosdagi materiallar va ularni tushirilish usulidan qat’iy nazar, boshqa shunga o‘xshash moddalarni qo‘sib hisoblaganda, konstruksion materiallarning yuzasiga tushirilgan materiallarning barcha qatlamlari;

**statik mustahkamlik** – konstruksiyaning kattaligi bo‘yicha maksimal bo‘lgan foydalanish yuklanishiga buzilmasdan qarshilik ko‘rsatish xususiyati;

**universal-yig‘ma mebel** – mahsulotlarining ko‘p variantli yig‘ilishini ta’minlaydigan, unifikatsiya qilingan elementlar asosida qurilgan mebel;

**xizmat qilish muddati** – detallari, uzellari, birikmalari va shunga o‘xshash qismlari fuqarolar hayoti va salomatligi uchun xavf tug‘dirishni, ularning mol-

mulkiga yoki atrof muhitga zarar yetkazishni boshlashi mumkin bo‘lgan, mebel mahsulotidan foydalanishning boshlanishidan chegaraviy holatga yetib kelgungacha bo‘lgan ishlab chiqaruvchi tomonidan berilgan kalendar davomiyligi;

**yong‘in xavfsizligi** – mebelning yumshoq elementlarini tayyorlash uchun ishlataladigan, to‘qimachilik va charm materiallarining yuzasi bo‘ylab alanganuvchanlik, alanga tarqalishni belgilangan me’yorlariga riosa qilinishi;

**zarb mustahkamligi (zarbg‘a mustahkamlik)** – konstruksiyaning unga zarb yuklanishi berilishida mustahkamligi;

**o‘quv muassasalari uchun mebel** – maktabgacha va umumta’lim maktablari, bilim yurtlari, o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlarini jihozlash (mebel bilan ta’minlash) uchun mebel;

**shakli o‘zgaradigan (transformatsiyalashuvchi) mebel** – konstruksiysi uning funksional vazifasi va (yoki) o‘lchamlari o‘zgartirilishiga imkon beradigan mebel;

**chidamlilik** – uzoq muddatli foydalanishdagi yuklanishlar ta’siri ostida mebel mahsulotlarining qattiqligi, mustahkamligi, ishga yaroqliligin saqlab qolish xususiyati.

## **2-bob. Mahsulotni bozorda muomalaga chiqarish**

8. Mebel mahsulotlari Texnik reglament talablariga, shuningdek, mebel mahsulotlariga taalluqli bo‘lgan texnik reglamentlarga muvofiqligi bo‘yicha zarur muvofiqlikni baholashdan o‘tgandan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi hududida va tashqi bozorlarda muomalaga chiqariladi.

9. Agar mebel mahsulotlari Texnik reglament, shuningdek, respublika hududida mazkur mahsulotlarga taalluqli bo‘lgan boshqa normativ hujjatlar talablariga muvofiq bo‘lsa, mebel mahsulotlari O‘zbekiston Respublikasi hududidagi bozorda muomalaga chiquvchi muvofiqlik belgisi bilan tamg‘alanadi.

## **3-bob. Xavfsizlik talablari**

10. Mebel mahsuloti, uni vazifasi bo‘yicha qo‘llanilishida va foydalanish hujjatlarida ko‘zda tutilgan qoidalarga riosa qilgan va quyidagi talablarga javob bergan holda ishlab chiqarilishi shart:

mexanik xavfsizlik;

kimyoviy xavfsizligi;

yong‘in xavfsizligi;

elektr xavfsizligi.

11. Mebel mahsulotlarining mexanik xavfsizligi quyidagilar bilan ta'minlanishi kerak:

mebel mahsulotlari konstruksiyasining zarur darajadagi barqarorligi, statik va zarbga mustahkamligi, qattiqligi, deformatsiyalanuvchanligi, bukish kattaligi, uzoq muddatli xizmat qilishi;

mebel mahsulotlarining funksional elementlarini ikki tomonga ajratish (surish, shaklini o'zgartirish) kuchi;

yumshoq elementlarining yumshoqligi va qoldiq deformatsiyasi;

ikki qavatli karavotlarning bajarilishi.

Kemasozlikda qo'llaniladigan mebellarning barqarorligi uning qotirilishi mavjudligi bilan ta'minlanishi lozim.

Mebel mahsulotiga qo'yiladigan mexanik xavfsizlik talablari Texnik reglamentning 2-ilovasida keltirilgan;

mebel mahsulotlari, shu jumladan shakli o'zgaradigan, alohida detallari, yuza va mahkamlash furniturası, mebel mahsulotlarining shaklini o'zgartirish mexanizmlari, tortiladigan va ikki tomonga suriladigan elementlardan foydalanishda jarohatlardan himoyalashning zarur darajasi (elementlarning ishonchli qotirilishi va mahkamlanishi, o'z-o'zidan ochilib ketishidan himoya, o'tkir bo'rtib turuvchi qismlar va g'udurlar mavjud bo'lmasligi, stol ustki qismlari, stullarning o'rindiqlari va suyanchiqlari, karavotlarning suyanchiqlarini ochiq bo'lgan burchaklari va qirralari o'tmaslashtirilishi yoki dumaloqlanishi);

shisha yoki shisha bilan metall, yog'och va polimer materiallar birikmasidan ishlab chiqilgan mebeldan foydalanishda jarohatlardan himoyalashning zarur darajasi (buzilishida shishaning yirik bo'laklari hosil bo'lish imkoniyati mavjud bo'lmasligi;

shishaning maxsus – toblangan, o'tda kuydirilgan, armaturalangan va ko'p qavatli turlarini ishlatilishi; shishadan tayyorlangan mahsulotlarning qirralariga faskasi yoki fasetini olib tashlash bilan silliqlab, sayqallab ishlov berilishi). Javonlar (tokchalar) va eshik filenkalarini listli shishadan ishlab chiqarishga ruxsat etiladi.

bolalar karavoti va ko'p qavatli karavotlardan hamda bolalar baland stullaridan bolalarni qulab tushish, ulardan foydalanishda tana qismlarini qisilib qolish xavfi yuzaga kelishining yo'l qo'yib bo'lmaydigan xavfi mavjud bo'lmasligi;

mebel mahsulotlarining funksional o'lchamlariga qo'yiladigan talablarga hamda ergonomika va antropometriya talablariga rioya qilinmasligidan bolalar va o'smirlar salomatligi himoyalanishining zarur darajasi.

12. Mebel mahsulotlarining kimyoviy xavfsizligi, barcha ajralib chiqadigan moddalarning birgalikdagi ta'sirini hisobga olgan holda, inson organizmiga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan miqdorlarda

mebel mahsulotlaridan atrof muhitga uchuvchan kimyoviy moddalar ajralishining mavjud bo‘lmasligi bilan ta’minlanishi kerak.

Mebeldan foydalanishda xavflilikning birinchi sinfiga mansub bo‘lgan kimyoviy moddalar ajralib chiqmasligi, qolgan moddalarning miqdori esa Texnik reglamentning 3-ilovasida keltirilgan, havo muhitiga ruxsat etiladigan migratsiya darajalaridan oshmasligi kerak.

Mebel ishlab chiqarish jarayonida bir qator zararli kimyoviy moddalar ajralib chiqishi mumkin. Bu moddalarning konsentratsiyasi belgilangan me’yoriy chegaralardan oshib ketmasligi va ushbu me’yoriy chegaralar yig‘indisining umumiyligi miqdori birdan oshmasligi zarur.

Bolalar, maktabgacha ta’lim, umumiyligi o‘rtalama ta’lim, davolash-profilaktika, sanatoriya-kurort muassasalarida ishlatiladigan mebel mikrofloraning (ayniqsa patogen) o‘sishi va rivojlanishini oldini olish maqsadida ishchi va fasad yuzalarini namlab dezinfeksiyalash imkoniyatini ta’minlashi kerak. Kimyoviy reagentlar bilan dezinfeksiya qilingandan so‘ng yuzasining ko‘rinadigan o‘zgarishlari bo‘lmasligi kerak (yuqori barqaror yuzalar) yoki yuzanining jilosi yoki rangida bir oz seziladigan o‘zgarishlar yuzaga kelishi mumkin (barqaror yuzalar).

Mebel mahsulotlari xonada o‘ziga xos xususiyatga ega 2 balldan ko‘p bo‘lmasligi hid chiqarmasligi kerak.

O‘tirish va yotish uchun mebelni ishlatish sharoitida (xona haroratining namligi (30-60) % bo‘lganda), uning yuzasida elektrostatik maydonning kuchlanganlik darajasi 15,0 kV/m dan oshmasligi kerak.

Mebelni ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan taxta va yog‘och-tarkibli materiallardagi seziy –  $^{137}$  ning ruxsat etiladigan solishtirma faolligi 300 Bq/kg dan oshmasligi kerak.

Mebel ishlab chiqarish uchun mineral asosdagi materiallarda tabiiy radionuklidlarning solishtirma samarali faolligi 370 Bq/kg dan oshmasligi kerak.

Mebel mahsulotlarini ishlab chiqarishda, uni ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan, materiallar va butlovchi qismlar ishlatilishi lozim.

Taxta plita materiallaridan (qatlamlar va qirralar) tayyorlangan mebel detallarining yuzalari, quyidagilardan tashqari, himoyaviy yoki himoyaviy-dekorativ qoplamlarga ega bo‘lishi kerak:

- o‘zaro ulanadigan birikmalarida ko‘rinmaydigan yuzalar;
- furnitura o‘rnatish joylaridagi teshiklar;
- orqa qismini o‘rnatishda ochiq holda qoladigan shitlarning qirralari;
- “ustiga qo‘yiladigan” yoki “chorakka” devorlari.

13. Mebel mahsulotlarini ichiga o‘rnatiladigan elektr yoritish asboblari, maishiy texnika, elektrotexnik uskunalar va elektr uzatmalar bilan butlashda izolyatsion himoya va elektr xavfsizligining zarur darajasi elektr xavfsizligi qoidalari talablariga muvofiq bo‘lishi kerak.

14. O‘tirish va yotish uchun mebel mahsulotlarining yumshoq elementlarini ishlab chiqarishda qoplash sifatida qo‘llaniladigan to‘qimachilik va charm materiallarini yong‘in xavfsizligining zaruriy darajalari:

o‘tirish va yotish uchun mebelning yumshoq elementlarini ishlab chiqarish uchun yengil alangalanadigan va yonish mahsulotlarining zaharliligi bo‘yicha T4 guruhiga kiradigan qoplash uchun to‘qimachilik va charm materiallari qo‘llanilmasligi lozim;

mebelni ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan to‘qimachilik va charm materiallariga ilova hujjatlarida ularning yong‘in xavfsizligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi lozim.

#### 15. Foydalanishda mebel mahsulotlarining xavfsizlik talablari:

Muomalaga chiqarilgan mebel mahsulotlarining ishlatalishi tamg‘alash, yig‘ish, foydalanish va parvarishlash bo‘yicha yo‘riqnomada ko‘rsatilgan mebel mahsulotining vazifasi bo‘yicha, shuningdek (zarurat bo‘lganda) ishlab chiqaruvchi tomonidan ko‘rsatilgan ruxsat etiladigan chegaraviy yuklanishlarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi;

Qismlarga ajratilgan holda yetkazib beriladigan mebel mahsulotlari, ishlab chiqaruvchi tomonidan ilova qilingan, butlash bayonnomasi va montaj qilish sxemasini o‘z ichiga oladigan, yig‘ish bo‘yicha yo‘riqnomaga muvofiq yig‘ilishi lozim;

Mebel mahsulotlaridan foydalanishda, polga tegib turadigan, mebel mahsulotlarining elementlariga suv va boshqa suyuqliklar tushishining oldi olingan bo‘lishi lozim. Oshxona, vannaxonalari uchun mebel mahsulotlarida, laboratoriya mebelida moykalar, rakkinalarni montaj qilishda mebel mahsuloti korpusining yuzasi bilan kontaktda bo‘ladigan joylarida ularning gidroizolyatsiyasi ko‘zda tutilgan bo‘lishi lozim.

Mebel mahsulotlarini qizdirish va isitish asboblariga bevosita yaqin joyda o‘rnatilishida ularning yuzalari foydalanish vaqtida qizishdan himoyalangan bo‘lishi kerak. Mebel elementlarining qizish harorati +40°C dan oshmasligi lozim.

#### **4-bob. Mebel mahsulotlarini tamg‘alash talablari**

16. Iste’molchi uchun axborotlar, tamg‘alash, foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomalar va agar mebel qismlarga ajratilgan holda yetkazib berilsa, yig‘ish bo‘yicha yo‘riqnomalar ko‘rinishida taqdim etiladi.

Mebelning O‘zbekiston Respublikasi hududida sotiladigan va eksportga yetkazib beriladigan har bir mahsuloti o‘zbek, rus tillarida, davlatlarning qonunchiligidagi mos holdagi talablar mavjud bo‘lsa – uning davlat tilida tamg‘aga ega bo‘lishi kerak. Xorijiy mamlakatlardan yetkazib beriladigan mahsulotning savdo nomi, shuningdek ishlab chiqaruvchi firmaning nomi lotin alifbosi harflarida bajarilishi mumkin.

Tamg‘a, yig‘ilgan holda yetkazib beriladigan, mebel mahsulotiga mahkam yopishtirib qo‘yilgan, matodan yorliqda yoki qog‘oz yorliqda (etiketka) bosma usulda bajarilgan bo‘lishi lozim.

Qismlarga ajratilgan holda yetkazib beriladigan mebel mahsulotlari mahsulotning belgilanishi va ishlab chiqarilgan sanasi bilan tamg‘aga ega bo‘lmashigi mumkin. Bunday holatda mahsulotning belgilanishi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchi tomonidan mebel mahsulotlarini sotish vaqtida yoki uni foydalanuvchida yig‘ish vaqtida qayd etib qo‘yiladi. Ishlab chiqarilgan sanasi o‘ramda (o‘ramlarda) ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak. Qismlarga ajratilgan holdagi mebel tamg‘asi uning o‘ramiga tushiriladi.

Tamg‘ani yuvilib ketmaydigan bo‘yoq bilan, tamg‘alab qayd etib qo‘yishga ruxsat etiladi.

Tamg‘a aniq bo‘lishi va quyidagilardan tashkil topishi kerak:

ekspluatatsion va funksional maqsadiga ko‘ra mebel mahsulotining nomi, mahsulotning belgilanishi (raqamli, xususiy, modeli va hokazo);

ishlab chiqaruvchining tovar belgisi (logotipi) (mavjud bo‘lganda);

ishlab chiqaruvchi davlatning nomi;

ishlab chiqaruvchining nomi va joylashgan manzili;

ishlab chiqaruvchi tomonidan vakolat berilgan shaxs, importyorning nomi, yuridik va korxona manzili;

ishlab chiqarilgan sanasi;

kafolat muddati;

ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan xizmat qilish muddati;

O‘zbekiston Respublikasi bozorida mahsulotning muvofiqlik belgisi.

Qismlarga ajratilgan holda yetkazib beriladigan mebel uchun tamg‘a yorlig‘i yig‘ish bo‘yicha yo‘riqnomasi bilan birga o‘ramga solib qo‘yilishi lozim.

Jamoat xonalari uchun bolalar va o‘quvchi stullari, stollari, partalarini tamg‘asida qo‘srimcha tarzda quyidagilar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak:

suratida – ularning bo‘y nomeri, maxrajida – bolalarning o‘rtacha bo‘yi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari va o‘quv yurtlari (o‘rta maxsus va oliv o‘quv yurtlaridan tashqari) uchun mo‘ljallangan stollar, partalar va stullarning ko‘rinadigan tashqi yuzalarida mebel mahsulotining bo‘y nomerlariga ko‘ra quyidagi ranglardagi kamida 10 mm diametrli aylana yoki kamida 10x15 mm o‘lchamli gorizontal chiziq ko‘rinishidagi rangli tamg‘a tushirilgan bo‘lishi kerak:

- 00 – qora
- 0 – oq
- 1 – to‘q sariq
- 2 – binafsha rang
- 3 – sariq
- 4 – qizil
- 5 – yashil
- 6 – moviy.

Rangli tamg‘ani tushirish usuli uning uzoq muddat saqlanuvchanligini ta’minlashi lozim. O‘zi yelimlanadigan asosga ega bosma usulida bajarilgan rangli tamg‘a tushirilishiga ruxsat etiladi.

Mebel mahsulotiga, foydalanish xavfsizligi qoidalari va shartlarini, shu jumladan Texnik reglamentning 3-bobi 16-bandida mavjud bo‘lgan axborotlar va boshqa qo‘srimcha ma’lumotlarni belgilovchi yo‘riqnomasi ilova qilinishi lozim.

### **5-bob. O‘zbekiston Respublikasi bozori hamda tashqi bozorlarda mahsulotlarni muvofiqlik belgisi bilan tamg‘alash**

17. Xavfsizlik talablariga muvofiq bo‘ladigan hamda Texnik reglamentning 6-bobiga asosan muvofiqlikni baholash tartibidan o‘tgan mebel mahsulotlari O‘zbekiston Respublikasining muvofiqlik belgisi tushirilgan tamg‘aga ega bo‘lishi kerak.

18. O‘zbekiston Respublikasining muvofiqlik belgisi bilan tamg‘alash mebel mahsulotlari bozorda muomalaga chiqarilishidan oldin amalga oshiriladi.

19. O‘zbekiston Respublikasining muvofiqlik belgisi har bir mebelning ajralmaydigan qismiga joylashtirilgan tamg‘a yorlig‘iga tushiriladi. O‘zbekiston Respublikasining muvofiqlik belgisini o‘zgarishi mumkin bo‘lgan butlovchi qismlar, shu jumladan, suriladigan qutilar (tortma), sozlanadigan javonlar va boshqa detallar sirtiga tushirishga ruxsat etilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining muvofiqlik belgisi shuningdek, mebel mahsulotlariga ilova qilingan kuzatuv hujjalari va tovar-transport varaqasiga ham tushiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining muvofiqlik belgisi mebelning butun xizmat

muddati davomida aniq tasvirni ta'minlovchi har qanday usulda tushiriladi.

20. Yig'iladigan va bo'laklarga ajraladigan yoki universal-yig'ma konstruksiyali mebel mahsulotlari uchun O'zbekiston Respublikasining muvofiqlik belgisini faqat ularning qadoqlarida va ularga ilova qilingan kuzatuv hujjatlariga tushirishga ruxsat etiladi.

### **6-bob. Muvoqiqlikni baholash**

21. Mebel mahsulotlarining mazkur Texnik reglamentning talablariga muvofiqligi, muvofiqlikni deklaratsiya qilish shaklida tasdiqlanadi.

22. Majburiy tartibda muvofiqligi baholanishi lozim bo'lgan mebel mahsulotlarining ro'yxati 1-ilovada keltirilgan.

23. Xavfsizlik talablariga muvofiqlikni baholash:

Mebel mahsulotlarini Texnik reglament talablariga muvofiqligi bevosita xavfsizlik talablarini bajarish, yoki Texnik reglament talablarini standartlashtirish sohasidagi hujjatlar ro'yxatiga kiritilgan hujjatlar talablariga rioya qilish orqali ta'minlanadi.

Texnik reglament talablarini qo'llash va bajarish va mahsulotlarni muvofiqligini baholashni amalga oshirish uchun kerakli bo'lgan mebel mahsulotlarini o'lchashning sinov (tadqiqot) usullari, shu jumladan, namunalarni tanlab olish qoidalari mebel mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risidagi texnik reglament talablarini qo'llash va bajarish va mebel mahsulotlarini muvofiqligini baholashni amalga oshirish uchun kerakli bo'lgan o'lchash va sinov (tadqiqot) usullari, shu jumladan, namunalarni tanlab olish qoidalardan tashkil topgan standartlar ro'yxatiga kiritilgan standartlarda belgilanadi.

24. Mebel mahsulotlarining muvofiqligi quyidagi sxemalarning biri bo'yicha deklaratsiya qilish yo'li bilan tasdiqlanadi:

1D sxema – turkum ishlab chiqarilgan mebel mahsuloti uchun ariza beruvchining o'z dalillariga asoslanib muvofiqlikni e'lon qilishda qo'llaniladi. Bunda ariza beruvchi ishlab chiqaruvchi yoki u tomondan vakolat berilgan yuridik shaxs hisoblanadi;

2D sxema – yagona (bitta) mebel mahsuloti uchun yoki uning to'pi uchun ariza beruvchining o'z dalillari asosida muvofiqlikni e'lon qilishda qo'llaniladi. Bunda ariza beruvchi ishlab chiqaruvchi (u tomondan vakolat berilgan yuridik shaxs) yoki sotuvchi (import qiluvchi) hisoblanadi;

3D sxema – turkum ishlab chiqarilgan mebel mahsuloti uchun sinov laboratoriysi ishtirokida olingan dalillar va ariza beruvchining o'z dalillari (agar mavjud bo'lsa) asosida muvofiqlikni deklaratsiya qilishda qo'llaniladi. Bunda ariza beruvchi ishlab chiqaruvchi yoki u tomondan vakolat berilgan yuridik shaxs hisoblanadi;

4D sxema – yagona (bitta) mebel mahsuloti uchun yoki uning to‘pi uchun sinov laboratoriysi ishtirokida olingan dalillar va ariza beruvchining o‘z dalillari (agar mavjud bo‘lsa) asosida muvofiqlikni deklaratasiyalashda qo‘llaniladi. Bunda ariza beruvchi ishlab chiqaruvchi (u tomondan vakolat berilgan yuridik shaxs) yoki sotuvchi (import qiluvchi) hisoblanadi.

25. Muvofiglik to‘g‘risidagi deklaratsiya qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi.

### **7-bob. O‘tish davri**

26. Mazkur Texnik reglament kuchga kirgan paytdan boshlab O‘zbekiston Respublikasi hududida texnik jihatdan tartibga solish sohasida amal qiluvchi va mebel mahsulotlariga talablar belgilovchi normativ hujjatlar Texnik reglamentga muvofiqlashtirilgunga qadar Texnik reglamentga zid bo‘lmagan qismlari bo‘yicha amalda qo‘llaniladi.

27. Texnik reglament kuchga kirgunga qadar mebel mahsulotlari uchun olingan muvofiqlikni tasdiqlovchi hujjatlar ushbu hujjatlarda belgilangan muddatlar davomida amalda bo‘ladi.

### **8-bob. Texnik reglament talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati**

28. Mazkur Texnik reglament talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati mebel mahsulotlari xavfsizligi sohasidagi vakolatli davlat organlari tomonidan o‘z vakolatlari doirasida O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

29. Ushbu Texnik reglament talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.